LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

SUD MA'MURCHILIGI INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jo'rayeva Marjonaxon Zuhriddin qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
"Advokatlik faoliyati yo'nalishi" magistranti
Elektron pochta: jurayevamarjona545@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sud ma'murchiligi institutining nazariy-huquqiy mazmuni, huquqiy tabiati va o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy e'tibori sud ma'murchiligining huquqiy kategoriyadagi mazmunini aniqlash hamda uni sud hokimiyati faoliyatining boshqa shakllaridan farqlovchi jihatlarni nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan. Mavjud ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish asosida sud ma'murchiligiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqiladi, uning huquqiy tabiati ochib beriladi hamda mazkur institutni tavsiflovchi asosiy belgilar tizimlashtiriladi. Shuningdek, sud ma'murchiligining odil sudlovni amalga oshirish faoliyati bilan o'zaro nisbati va sud hokimiyati faoliyatini ta'minlashdagi o'rni nazariy nuqtayi nazardan yoritiladi. Tadqiqot yakunida sud ma'murchiligini mustaqil huquqiy institut sifatida tavsiflovchi ilmiy xulosalar shakllantiriladi.*

Kalit so'zlar: *sud ma'murchiligi, sud hokimiyati, odil sudlov, sud mustaqilligi, sud boshqaruvi, sud faoliyatini ta'minlash, huquqiy institut, sud ma'muriyati.*

ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОСОБЕННОСТИ ИНСТИТУТА СУДЕБНОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ

Джураева Маржонахон Зухриддин кизи
Магистрант направления "Адвокатская деятельность"

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Ташкентский государственный юридический университет

Электронная почта: jurayevamarjona545@gmail.com

Аннотация. В статье исследуются теоретико-правовое содержание, правовая природа и особенности института судебного администрирования. Основное внимание уделяется определению содержания судебного администрирования как правовой категории и теоретическому обоснованию его отличительных признаков от иных форм деятельности судебной власти. На основе анализа существующих научных подходов сформулировано авторское определение судебного администрирования, раскрыта его правовая природа и систематизированы основные признаки, характеризующие данный институт. Кроме того, рассматривается соотношение судебного администрирования с деятельностью по осуществлению правосудия и определяется его роль в обеспечении функционирования судебной власти с теоретико-правовой точки зрения. По результатам исследования сформулированы научные выводы, характеризующие судебное администрирование как самостоятельный правовой институт.

Ключевые слова: судебное администрирование, судебная власть, правосудие, независимость судей, управление судами, обеспечение деятельности судов, правовой институт, судебная администрация.

THE LEGAL NATURE AND SPECIFIC FEATURES OF THE INSTITUTION OF JUDICIAL ADMINISTRATION

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Marjonakhon Zuhriddinovna Jurayeva
Master's student in "Advocacy" specialization
Tashkent State University of Law
E-mail: jurayevamarjona545@gmail.com

Abstract. This article examines the theoretical and legal content, legal nature, and specific features of the institution of judicial administration. The study focuses primarily on defining judicial administration as a legal category and theoretically substantiating the features that distinguish it from other forms of judicial activity. Based on an analysis of existing scholarly approaches, the article develops an authorial definition of judicial administration, examines its legal nature, and systematizes the principal characteristics of the institution. Particular attention is also given to the relationship between judicial administration and the administration of justice, as well as to its role in ensuring the functioning of the judiciary from a theoretical and legal perspective. The study concludes with scholarly findings that characterize judicial administration as an independent legal institution.

Keywords: judicial administration, judiciary, administration of justice, judicial independence, court management, court support, legal institution, court administration.

KIRISH. Sud hokimiyatining samarali faoliyat yuritishi, avvalo, odil sudlovni amalga oshirishning institutsional va tashkiliy shart-sharoitlari qay darajada ta'minlanganiga bog'liq. Sudyaning protsessual mustaqilligi va sud tomonidan ishlarni qonun asosida hal etish vakolati odil sudlovning bevosita mazmunini tashkil etsa, sud faoliyatining moliyaviy, moddiy-texnik, axborot,

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

tashkiliy va boshqa ta’minot masalalarining oqilona tashkil etilishi ushbu faoliyatning amaliy jihatdan to‘laqonli amalga oshirilishini ta’minlaydi. Shu ma’noda, odil sudlovni amalga oshirish bilan sudlarning normal faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan faoliyatni bir xil huquqiy mazmunga ega hodisalar sifatida baholash mumkin emas. Sud hokimiyati faoliyatining mazkur jihati zamonaviy sud-huquq islohotlarining alohida yo‘nalishiga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham sud tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish jarayonida sudyalarni bevosita odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan vazifalardan ozod etish, sudlarning faoliyatini ta’minlashga oid vakolatlarni qayta tashkil etish hamda sud hokimiyatining samarali faoliyat yuritishi uchun tegishli ma’muriy shart-sharoitlarni yaratish masalalariga e’tibor kuchaymoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 14-avgustdagi PF-160-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Odil sudlov-2030” strategiyasida sudyalarni odil sudlov bilan bog‘liq bo‘lmagan vazifalardan ozod etish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [2]. Mazkur yondashuv sud hokimiyati faoliyatida sud ma’murchiligi bilan bog‘liq munosabatlarni alohida institutsional va huquqiy hodisa sifatida ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, sudyaga odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mustaqil faoliyat sharoitini yaratish bilan sudyaning o‘ziga ma’muriy-ta’minot xarakteridagi vazifalarni yuklash o‘rtasida muayyan huquqiy tafovut mavjud. Ana shu tafovutni huquqiy jihatdan aniq belgilash sud hokimiyatining mustaqilligi, uning samaradorligi va sudyalar faoliyatining funksional chegaralarini to‘g‘ri anglash uchun muhim ahamiyatga ega. Sud ma’murchiligining huquqiy mazmuni sud tizimining faqat moddiy yoki texnik

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

jihatdan ta’minlanishi bilan chegaralanmaydi. U sud hokimiyatining faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan bir qator tashkiliy va institutsional munosabatlarni qamrab oluvchi murakkab huquqiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuvda sud ma’murchiligining mazmunini odil sudlovni amalga oshirish faoliyatidan ajratish bilan bir qatorda, uning aynan sud hokimiyatining mustaqil va samarali faoliyat yuritishini ta’minlashga xizmat qiluvchi xususiyatlarini aniqlash talab etiladi. Sud tizimida yuz berayotgan raqamli transformatsiya ham mazkur masalaning nazariy ahamiyatini yanada oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF–140-son Farmonida sud faoliyatini raqamlashtirish, “Raqamli sud” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish, sudlar uchun zarur texnik infratuzilmani yaratish, sudlarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda ushbu yo‘nalishdagi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan [2]. Shu jihatdan qaralganda, sud ma’murchiligi institutining huquqiy asoslarini shakllantirish masalasi faqat sudlarni boshqarish yoki ularning kundalik faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlash muammosi sifatida namoyon bo‘lmaydi. Mazkur institutning huquqiy tabiatini anglash, uning sud hokimiyati tizimidagi o‘rnini belgilash va odil sudlovni amalga oshirish faoliyati bilan nisbatini aniqlash sud hokimiyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini nazariy jihatdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ilmiy nuqtayi nazardan sud ma’murchiligi tushunchasining o‘ziga xosligi shundaki, u sud hokimiyati faoliyatining sud qarorini qabul qilish va odil sudlovni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, biroq ushbu faoliyatning amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan ta’minot va tashkiliy munosabatlarini ifodalaydi. Bunda sud ma’murchiligining sud hokimiyatiga xizmat qiluvchi funksional

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

xususiyati bilan uning ma’muriy mazmuni o‘rtasidagi nisbat alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Aynan shu jihat sud ma’murchiligini umumiy ma’muriy boshqaruv kategoriyalaridan farqlash va uni sud hokimiyatining o‘ziga xos instituti sifatida tavsiflash imkonini beradi. Shu sababli sud ma’murchiligining huquqiy tabiatini aniqlash masalasi, avvalo, uning huquqiy mazmunini ochib berish, ushbu institutni tashkil etuvchi munosabatlar doirasini belgilash va uni odil sudlovni amalga oshirish faoliyatidan farqlovchi mezonlarni aniqlashni talab etadi. Bunday nazariy yondashuv sud ma’murchiligining mustaqil huquqiy institut sifatidagi xususiyatlarini asoslash uchun zarur metodologik zamin yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi — sud ma’murchiligining huquqiy mazmuni va huquqiy tabiatini aniqlash, uning sud hokimiyati faoliyatidagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslash hamda sud ma’murchiligini odil sudlovni amalga oshirish faoliyatidan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlarni ilmiy jihatdan tizimlashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

— Sud ma’murchiligining huquqiy mazmunini aniqlash va unga mualliflik ta’rifini shakllantirish.

— Sud ma’murchiligining huquqiy tabiatini ochib berish hamda uning sud hokimiyati faoliyatidagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslash.

— Sud ma’murchiligining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni ilmiy jihatdan tizimlashtirish.

Tadqiqot savollari:

1. Sud ma’murchiligi qanday huquqiy mazmunga ega va unga qanday mualliflik ta’rifi berish mumkin?

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

2. Sud ma’murchiligining huquqiy tabiati nimada namoyon bo‘ladi va uning sud hokimiyati faoliyatidagi o‘rni qanday belgilanadi?

3. Sud ma’murchiligini tavsiflovchi o‘ziga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

ASOSIY QISM (MUHOKAMA VA NATIJA). Tadqiqotning manbaviy asosini sud ma’murchiligi, sud boshqaruvi va sud hokimiyatining institutsional faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida sud tizimini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Xususan, M.K. Levyning sud ma’murchiligini mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida tadqiq etishga bag‘ishlangan ishi [4], M. Zirk-Sadowskining sud ma’murchiligi va sud boshqaruvi o‘rtasidagi munosabatlarni yorituvchi tadqiqoti [6], T. Bunjevacning sud o‘zini o‘zi boshqarishi va sud ma’murchiligi modellariga oid qiyosiy tadqiqoti [3], J. Petkun va J. Schottenfeldning sud ma’muriy vakolatining mazmuni hamda uning odil sudlov faoliyati bilan nisbatini tahlil qiluvchi ishi [5] tadqiqotning asosiy nazariy manbalarini tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasida sud ma’murchiligining shakllanishi va rivojlanishiga oid huquqiy asoslarni aniqlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-apreldagi PQ-2872-son qarori [1] hamda 2026-yil 14-avgustdagi PF-160-son Farmoni [2] o‘rganildi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy jihatdan ta’minlash hamda sud ma’murchiligi institutini rivojlantirishning huquqiy asoslarini aniqlashda foydalanildi.

Tadqiqotda formal-yuridik, tizimli-tahliliy, qiyosiy-huquqiy va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar sud

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ma’murchiligining huquqiy mazmunini aniqlash, uning huquqiy tabiatini ochib berish hamda o‘ziga xos xususiyatlarini tizimlashtirish imkonini berdi.

Sud ma’murchiligini huquqiy hodisa sifatida anglashda, avvalo, uning sud hokimiyati faoliyatida tutgan o‘rniga e’tibor qaratish lozim. Mazkur faoliyat sud tomonidan muayyan ishni ko‘rib chiqish va hal etish jarayonining o‘zini emas, balki bunday faoliyatning amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni tashkil etish bilan bog‘liq. Shu jihatdan sud ma’murchiligi sudlov faoliyatining mazmunidan tashqarida qoluvchi, biroq uning amalda to‘laqonli amalga oshirilishini ta’minlovchi munosabatlarni qamrab oladi. M.K. Levy sud ma’murchiligini mustaqil tadqiqot sohasi sifatida belgilash masalasini qo‘yarkan, sudlarni institut sifatida o‘rganish, ularning tashkil etilishi va faoliyatini belgilovchi mexanizmlarni aniqlash zarurligiga e’tibor qaratadi [4]. M. Zirk-Sadowski esa sud ma’murchiligini sudlovning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi faoliyat sifatida tavsiflaydi va sudyaning ishni mazmunan hal etishi ma’muriy boshqaruv ta’siridan tashqarida bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi [6]. Ushbu qarashlar sud ma’murchiligining mazmunini faqat sud apparati faoliyatini tashkil etish yoki sudlarni moddiy jihatdan ta’minlash bilan cheklash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Uning mazmunida sud hokimiyatining normal faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnik va axborot shart-sharoitlarini yaratish bilan bog‘liq munosabatlar mujassamdir. Bunda asosiy mezon mazkur faoliyatning sudlov natijasiga ta’sir ko‘rsatishi emas, balki sudlovni mustaqil va samarali amalga oshirish uchun zarur sharoitni ta’minlashga qaratilganligidir. Shu nuqtayi nazardan, sud ma’murchiligiga quyidagi mualliflik ta’rifini berish mumkin: Sud ma’murchiligi sud hokimiyatining odil sudlovni

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

mustaqil va samarali amalga oshirishi uchun zarur tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnik, axborot va boshqa shart-sharoitlarni yaratish hamda ta’minlashga qaratilgan huquqiy munosabatlar tizimidir. Mazkur ta’rifda sud ma’murchiligining asosiy mazmuni uning sudlov faoliyatiga xizmat qiluvchi, biroq sudlovning o‘zini tashkil etmaydigan faoliyat ekanligi orqali ifodalanadi.

Sud ma’murchiligining huquqiy tabiatini belgilashda uning ikki jihatini farqlash zarur. Birinchisi, ushbu faoliyatning mazmunan ma’muriy xususiyatga egaligi. Ikkinchisi esa uning aynan sud hokimiyatining faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga yo‘naltirilganligidir. Shu sababli sud ma’murchiligini umumiy ma’muriy boshqaruv bilan aynanlashtirish uning sud hokimiyati bilan bog‘liq o‘ziga xosligini e’tibordan chetda qoldiradi. Sud ma’murchiligi sudyaning odil sudlovni amalga oshirish vakolatiga aralashmaydi. Sudyaning ish bo‘yicha huquqiy pozitsiyani shakllantirishi, dalillarga baho berishi va qaror qabul qilishi sudlov faoliyatining bevosita mazmuniga kiradi. Sud ma’murchiligi esa sudlovdan tashqaridagi, biroq sud tizimining faoliyat yuritishi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’muriy faoliyatlarni ham qamrab oladi [5]. Sud ma’murchiligi esa bunday faoliyatning amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan institutsional sharoit bilan bog‘liq. Zirk-Sadowski ham aynan shu farqqa e’tibor qaratib, sudlov bilan bog‘liq faoliyat ma’muriy tartibda boshqarilishi mumkin emasligini qayd etadi [6]. Shunday qilib, sud ma’murchiligining huquqiy tabiati uning sud hokimiyati faoliyatini ta’minlashga xizmat qiluvchi alohida huquqiy institut sifatida namoyon bo‘lishida ko‘rinadi. Uning ma’muriy mazmuni sud hokimiyatining mustaqilligini cheklash uchun emas, aksincha, sudlov faoliyatining mustaqil amalga oshirilishi uchun zarur shartlarni yaratish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Sud ma’murchiligining huquqiy tabiatidan kelib chiqib, uni tavsiflovchi bir qator belgilarni ajratish mumkin. Avvalo, sud ma’murchiligi ta’minlovchi xususiyatga ega. Uning vazifasi sudlovni amalga oshirishning o‘rnini egallash emas, balki ushbu faoliyat uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat. Ikkinchidan, sud ma’murchiligi institutsional xususiyatga ega. U alohida sud ishining mazmunini belgilashga emas, sudlarning uzluksiz va belgilangan tartibda faoliyat yuritishini ta’minlashga qaratiladi. Uchinchidan, sud ma’murchiligi sud hokimiyati mustaqilligi bilan bevosita bog‘liq. Ma’muriy vakolatlarning amalga oshirilishi sudyaning ishni mazmunan hal etish vakolatiga ta’sir qilmasligi sud ma’murchiligining muhim shartlaridan biridir. To‘rtinchidan, sud ma’murchiligi kompleks xususiyatga ega. Uning doirasida tashkiliy masalalar bilan bir qatorda moliyaviy, moddiy-texnik va axborot ta’minoti bilan bog‘liq munosabatlar ham shakllanadi. Shu belgilar sud ma’murchiligini sud hokimiyatining odil sudlovni amalga oshirish faoliyatidan farqlanuvchi, biroq u bilan funksional jihatdan chambarchas bog‘liq bo‘lgan huquqiy institut sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Sud ma’murchiligining huquqiy tabiatini aniqlashda uning sud hokimiyati faoliyatidagi funksional o‘rnidan kelib chiqish muhimdir. Chunki sud faoliyati faqat ishlarni ko‘rib chiqish va ular yuzasidan qaror qabul qilish bilan cheklanmaydi. Sudlovni amalga oshirish uchun sudning moddiy-texnik bazasi, moliyaviy ta’minoti, axborot resurslari, ish yuritish tizimi hamda sud apparatining faoliyati bilan bog‘liq shart-sharoitlar ham mavjud bo‘lishi lozim. Biroq ushbu ta’minot faoliyati sudyaning muayyan ish bo‘yicha protsessual qaroriga ta’sir ko‘rsatadigan boshqaruv vositasiga aylanmasligi kerak. M. Zirk-Sadowskining qarashlarida ham sud ma’murchiligining aynan shu jihati ajratib ko‘rsatiladi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Uning fikricha, sud ma’murchiligi sudlovning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi, biroq ma’muriy boshqaruv sudyaning ishni mazmunan hal etish faoliyatiga kirib borishi mumkin emas [6]. Demak, sud ma’murchiligining huquqiy tabiati uning ma’muriy xususiyatida emas, balki ushbu ma’muriy faoliyatning sud hokimiyatiga nisbatan qanday vazifani bajarishida namoyon bo‘ladi. U sudlovni boshqarish emas, sudlovni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni ta’minlashga xizmat qilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, sud ma’murchiligini sud hokimiyatining mustaqilligi bilan qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas. Aksincha, sud ma’murchiligining huquqiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi sudyaning odil sudlov bilan bog‘liq bo‘lmagan vazifalardan ozod etilishiga va uning asosiy faoliyatini sudlovga qaratish imkoniyatining kengayishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 14-avgustdagi PF-160-son Farmonida ham sudyalarni odil sudlov bilan bog‘liq bo‘lmagan vazifalardan ozod etish sud tizimini rivojlantirishning alohida yo‘nalishi sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv sud ma’murchiligini faqat sud apparatining ichki faoliyati bilan bog‘lash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Sud ma’murchiligi sud hokimiyatining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish, ularni muvofiqlashtirish va ta’minlash bilan bog‘liq kengroq huquqiy munosabatlarni qamrab oladi. Shu sababli uning tarkibiga kiruvchi munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi sud hokimiyatining mustaqilligi, sudlovning samaradorligi va sud tizimining barqaror faoliyat yuritishi o‘rtasidagi muvozanatni hisobga olishi kerak. M.K. Levy sud ma’murchiligini alohida ilmiy yo‘nalish sifatida tadqiq etish zarurligini asoslar ekan, ushbu sohani faqat sudlarning ichki boshqaruvi bilan cheklab qo‘yish mumkin emasligini ko‘rsatadi [4]. Bu fikr sud ma’murchiligining huquqiy institut

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

sifatidagi mazmunini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki sud ma’murchiligi sud hokimiyatining tashkiliy jihatdan mavjud bo‘lishini emas, uning odil sudlovni amalga oshirish qobiliyatini ta’minlaydigan munosabatlar majmuini ifodalaydi. Shundan kelib chiqib, sud ma’murchiligining asosiy belgilarini uning vazifasidan kelib chiqib belgilash maqsadga muvofiq. Bunda ta’minlovchi, institutsional, kompleks va sud hokimiyati mustaqilligi bilan bog‘liq xususiyatlar o‘zaro aloqador holda namoyon bo‘ladi. Mazkur belgilar yig‘indisi sud ma’murchiligini sudlov faoliyatining o‘zidan ajratib turadi, ayni vaqtda uning sud hokimiyati faoliyatining to‘laqonli amalga oshirilishi uchun zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sud ma’murchiligi va sud boshqaruvi tushunchalarini bir xil mazmunda qo‘llash ilmiy jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi. Sud boshqaruvi sud tizimini boshqarishning kengroq institutsional mexanizmlarini qamrab olishi mumkin, sud o‘zini o‘zi boshqarishi esa sudyalar tomonidan sud tizimiga oid ayrim masalalarni mustaqil hal etish bilan bog‘liq. Ushbu kategoriyalarning o‘zaro nisbati sud ma’murchiligining huquqiy mazmunini aniqlashda alohida nazariy ahamiyatga ega [3]. Sud boshqaruvi kengroq mazmunga ega bo‘lib, sud tizimining faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq turli munosabatlarni qamrab olishi mumkin. Sud ma’murchiligi esa, avvalo, sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’muriy va ta’minlovchi faoliyatga taalluqlidir. Sudlarning o‘zini o‘zi boshqarishi esa sudyalar hamjamiyatining ichki masalalarni hal etishiga oid vakolatlarni anglatadi. Shu sababli ushbu uch tushunchani yagona hodisa sifatida emas, o‘zaro bog‘liq, biroq mazmuni va funksional yo‘nalishi jihatidan farqlanuvchi kategoriyalar sifatida ko‘rish lozim.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

XULOSA. Tadqiqot natijasida sud ma’murchiligining huquqiy mazmuni, huquqiy tabiati va o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, sud ma’murchiligiga quyidagi mualliflik ta’rifi taklif etiladi: Sud ma’murchiligi — sud hokimiyatining odil sudlovni mustaqil va samarali amalga oshirishi uchun zarur tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnik, axborot va boshqa shart-sharoitlarni yaratish hamda ta’minlashga qaratilgan huquqiy munosabatlar tizimidir. Ushbu ta’rifda sud ma’murchiligining maqsadi — odil sudlovni mustaqil va samarali amalga oshirish, predmeti — uni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar, mazmuni esa — mazkur shart-sharoitlarni yaratish va ta’minlashga qaratilgan huquqiy munosabatlar sifatida belgilanadi.

Ikkinchidan, sud ma’murchiligining huquqiy tabiati sud hokimiyatining odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga xizmat qiluvchi, biroq uning mazmunini tashkil etmaydigan alohida huquqiy institut sifatida belgilanadi. Shu bois sud ma’murchiligi sudyaning ishni mazmunan ko‘rib chiqishi, dalillarga baho berishi va qaror qabul qilishi bilan bog‘liq vakolatlardan ajratilishi lozim.

Uchinchidan, sud ma’murchiligining o‘ziga xos xususiyatlari uning ta’minlovchi, institutsional, kompleks va sud hokimiyati mustaqilligi bilan uzviy bog‘liq ekanligida namoyon bo‘ladi. Aynan ushbu belgilar sud ma’murchiligini umumiy ma’muriy boshqaruvdan hamda odil sudlovni bevosita amalga oshirish faoliyatidan farqlovchi nazariy mezonlar sifatida taklif etiladi.

Demak, maqolaning asosiy ilmiy taklifi sud ma’murchiligini shunchaki sudlarni boshqarish yoki sud apparatini ta’minlash faoliyati sifatida emas, balki sud hokimiyatining mustaqil va samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-

sharoitlarni ta’minlovchi alohida huquqiy institut sifatida ilmiy muomalaga kiritish va yuqoridagi mualliflik ta’rifi asosida tavsiflashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-apreldagi PQ-2872-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti ishini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 14-avgustdagi PF-160-son “Odil sudlov-2030”: Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi xalqchil va adolatli sud tizimini barpo etish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2026-y., 06/26/160/0845-son //

3. Bunjevac T. Judicial Self-Governance in the New Millennium: An Institutional and Policy Framework. Singapore: Springer, 2021. DOI: 10.1007/978-981-33-6506-3.

4. Levy M.K. Defining the Field of Judicial Administration // Yale Journal of Law & the Humanities. – 2025. – Vol. 36. – P. 151–164.

5. Petkun J., Schottenfeld J. The Judicial Administrative Power // George Washington Law Review. – 2025. – Vol. 93. – P. 349–409.

6. Zirk-Sadowski M. Judicial Governance and Governing through Courts // Journal of Public Governance. – 2009. – Vol. 7, No. 1. – P. 45–64.